Биография

Ne’mat Mahkamov

Atoqli tilshunos olim Ne’mat Mahkamov 1951-yil 9-oktabrda Samarqand viloyatining Nurota tumanida tavallud topgan. 1968-yilda tumandagi 1-sonli o‘rta maktabni a’lo baholar bilan tamomlab, 1969-1974 –yillarda Toshkent davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet)ning o‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan.

1974-yildan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida katta laborant sifatida o‘z faoliyatini boshlagan Ne’mat Mahkamov kichik ilmiy xodim (1976-1983), katta ilmiy xodim(1983-1986; 1988-1991), yetakchi ilmiy xodim (1991-1999) lavozimlarida samarali mehnat qilgan. U 1999-2010 –yillarda Terminologiya bo‘limi mudiri, 2010-yildan umrining oxirigacha shu bo‘limning yetakchi ilmiy xodimi bo‘lib ishlagan.



Olim 1983-yilda akademik Azim Hojiyev rahbarligida “O‘zbek tilida affiksal va leksik-affiksal pleonazm” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Ne’mat Mahkamov qalamiga mansub “Adabiy norma va pleonazm” monografiyasida so‘z va qo‘shimchalarning qo‘llanilishi adabiy me’yor nuqtayi nazaridan tahlil qilingan bo‘lib, unda me’yorga zid qo‘llaniluvchi lisoniy birliklar atroflicha o‘rganilgan va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatilgan. Olim hammuallifligida yaratilgan “O‘zbek tilida leksik variantlar” (1986) va “O‘zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasini tartibga solish prinsiplari” (1991) monografiyalarida esa terminlarni tartibga solish tamoyillari va uning ilmiy asoslari belgilab berilgan.

Ne’mat Mahkamov faoliyatida leksikografiyaga oid amaliy va nazariy asarlar alohida o‘rin tutadi. Uning hamkorlikda tuzgan “Ish yuritish atamalarining ruscha–o‘zbekcha qisqacha lug‘ati” (1994), “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha-inglizcha ish yuritish terminlari lug‘ati” (1995, 2005), “Testologiya bo‘yicha ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha – ruscha izohli terminologik lug‘at –minimum” (2005), “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”(2013), “Xalqaro terminelementlarning izohli-illustrativ lug‘ati”(2020), “Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati”(2020) kitoblari, shuningdek, leksikografiyaning nazariy masalalariga bag‘ishlangan bir qator maqolalari, ayniqsa, olimning mustaqillik yillarida yaratilgan “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ishtiroki fikrimizning yaqqol dalilidir.

Биография



Tilshunos Ne’mat Mahkamovning uslubshunoslik, xususan, ilmiy va rasmiy-idoraviy uslub borasidagi tadqiqotlari alohida ahamiyaga ega. Olimning hamkorlikda yaratgan “O‘zbek tilida ish yuritish” kitobi 2000-2020-yillarda kengaytirilgan, takomillashtirilgan holda “Ish yuritish. Amaliy qo‘llanma”, “Davlat tilida ish yuritish” nomlari bilan o‘n marta nashr etilgan.

Ne’mat Mahkamovning ilmiy faoliyati qanchalik sermahsul bo‘lsa, uning ilmiy-pedagogik faoliyati ham alohida e’tiborga molikdir. Olim 1986-1988-yillarda Respublika Oliy ta’lim vazirligi yo‘llanmasi bilan Afg‘onistondagi Kobul universitetida professor-maslahatchi lavozimida faoliyat yuritgan. Ushbu universitetning filologiya fakultetida umumiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik fanlaridan ma’ruzalar o‘qish bilan birga o‘ngga yaqin kurslar bo‘yicha dasturlar tayyorlaydi, ilmiy jurnal va to‘plamlarda o‘ndan ortiq ilmiy maqola e’lon qiladi. Shuningdek, Afg‘onistonda ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan maktablarning 5-, 6-, 7-sinflari uchun darsliklar yaratishga rahbarlik qiladi. Mustaqillik yillarida O‘zR Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi tinglovchilariga, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti talabalariga, shuningdek, Respublika Nafis san’at litseyi o‘quvchilariga o‘z ma’ruzalari bilan til ilmidan saboq beradi.

Ne’mat Mahkamov yurtimizda testologiyaning amaliy va nazariy masalalariga bag‘ishlab yozilgan dastlabki maqolalar mualliflaridandir. Uning “Test natijalarining didaktik tahlili”, “Test matnlarida lingvistik tejamkorlik”, “Testologiyada validlik” kabi maqolalari Respublikamiz testologiyasini yangi bosqichga ko‘tardi.

Olimning ilmiy-nazariy asarlarini o‘qir ekansiz, aniq dalillarga tayanib, asosli xulosalar chiqaruvchi, keng mushohadali sinchkov olim ko‘z oldingizda namoyon bo‘ladi. Uning tilshunoslikning turli sohalariga bag‘ishlab o‘nga yaqin monografiya va lug‘atlar, 150 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar e’lon qilgani, shuningdek, 50 dan ortiq kitob va terminologik lug‘atlarga muharrirlik qilgani sermahsul ilmiy faoliyati dalilidir.

Ne’mat Mahkamovning o‘zbek tilshunosligi ravnaqi yo‘lidagi ko‘p yillik mashaqqatli mehnatlari munosib baholanib, 2007-yilda olim “Mehnat shuhrati”ordeni bilan taqdirlangan.